

BUGUNGI KUNDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7792076>

Safarova Iroda Alimjanovna

O'zbekiston jurnalistika va onmaviy kommunikatsiyalar universiteti
2- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya juda ham ayj olib borayotgan zamonamizda korrupsiyani oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob'ekti haqida, Dunyoning rivojlanishi hamda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashda birlashmog'imiz kerakligi haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: korrupsiya, faoliyat, xavfsizlik, sog'liqni saqlashda korrupsiyaga qarshi kurashishni ta'minlash, poraxo'rlik, huquq, fuqaro.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq korrupsiya illatiga qarshi kurashish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Chunki poraxo'rlik - hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro'siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan havfli jinoiy hodisalardan biridir.

Ma'lumki, korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Bugungi kunda biz yosh avlod uchun yurtimiz tomonidan ko'plab imkoniyatlar eshigi ochilishi quvonarli xol albatta. Birgina oliv ta'lim tizimiga bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Agar abiturent o'qishga kirishga ma'lum bal to'play olmasa ham, qo'shimcha kontrakt to'lov asosida talabalikka tavsiya qilinishi yo'lga qo'yildi. Bu bilan biz korrupsiyaga yo'l qo'yilishini oldini olgan bo'lamiche deymizu, lekin masalaning boshqa tomonini ham ko'rib chiqsak yomon bo'lmasdi. Oliy ta'lim tizimida TashMI ga kirish balini to'play olmagan talabgorlarga nisbatan qo'llanilishi qanchalik to'g'ri? Axir u yerda meditsinaga umumian qiziqmaydigan abiturent bo'lishi ham mumkin emasmi, yaqindagina barchamiz guvohi bo'lgan Doktor-maks dori vositalarini tekshiruvdan o'tmaganligi natijasida 18 nafar go'daklarning ayanchli o'limi yoxud mittivine taxallusi ostida faoliyat yuritadigan bloger Farhod Mannopovning notog'ri muolaja asosida vafot etishi sog'liqni saqlash tizimining qanchalik ayanchli holga kelganligini guvohi bo'ldik. Bahor kelganda maysaning gullagani kabi, xususiy klinikalar ham gullab ketganligi, ularning son-sanogi yo'qligi bu yurtimizda yetuk mutaxassislar ko'pligidan dalolatmi yoki so'g'liqni ham biznesga aylantirganligidanmi? Toshkent tibbiyot akademiyasi 1920-yilda tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda 9056 ta talabani o'z bag'riga olgan. Ushbu tibbiyot maskanida davolash ishi, tibbiy pedagogika, tibbiy profilaktika, menejment tibbiy biologiya, biotibbiyot muxandisligi va OMX, stomatologiya, ginekologiya, malaka oshirish va harbiy-tibbiyot kabi ko'plab fakultetlari mavjud. Ta'limning dastlabki 5 yilda talaba tibbiyot yo'naliishida ta'lim olsa, 6-bosqichidan umumiyl amaliyot vrachi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oladi. Yaqinda tikuvchilik sohasida ishlaydigan qo'shnimiz turmush o'rtog'i TashMI ga yetarli bal to'play olmaganiga

tabaqalashtirilgan kontraktga kobalt rusumli avtomashinasini sotib talabalikka tavsiya etilganini, lekin o'zi dizayner yo'nalishiga qiziqishini aytib o'tdi. Tasavvur qilyapsizmi tikuvg'i endi bo'lajak shifokor. Biz korrupsiyani oldini olamiz deb kelajakka tayyor potensial qotillarni yetishtirib chiqarmayapmizmi? Yana 6 yildan so'ng siz o'z jigargo'shangizni shu kabi shifokorlarga hayotingizni ishonib topshirgan bo'larmidingiz, biz bu haqida chuqur o'ylab ko'rib faqatgina o'z kuchi, iqtidori meditsina sohasini o'qib o'rgangan talabgorlarnigina o'quv maskaniga olsak kelajakda yuqorida sanab o'tgan kabi mudhish voqealarni oldini olgan bo'lamiz. Sog'liqni saqlash tizimida tibbiyot sohasidagi har qanday oliy o'quv yurtining qo'shimcha to'lov orqali talabalikka tavsiya qilinishini bekor qilishni, buni yetti o'lchab bir kesish maqoliga ko'ra ish yuritishni bo'lmasa yurtimizda sog'lig'imizni yaqin kelajakda hech kimga ishonib bo'lmas darajaga kelib qolmasligimiz uchun zudlik bilan buni oldini olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma'muriy munosabatlari ma'no-mohiyatini o'zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarga sabab bo'ladi. "Korrupsiya - davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida o'z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir. Lekin faqat davlat xizmatchilar korrupsiya faoliyatining sub'ektlari hisoblanadi, chunki korrupsiya munosabatlari yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan qarorlar qabul qilish yoki harakatlar sodir etish uchun hokimiyat vakolatiga faqat ular ega bo'ladi".

Bunda korrupsiya qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob'ekti sifatida alohida olingen korruptioner emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarini bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo'lishini anglagan holda harakat qilmog'imiz lozim bo'ladi.

Qonun va qonunosti hujjatlari asosida barcha davlat tashkilotlari, xususiy sohalar va fuqarolik jamiyati tashkilotlarida korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyalar tashkil etildi. Shuningdek, korrupsiya holatlari bo'yicha xabardor qilish mexanizmi va aniqlangan holatlar bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning huquqiy va amaliy asoslari yaratildi.

Lekin, mayjud vaziyat iqtisodiyotni yana-da o'stirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiya qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rinishini taqozo qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mustaqillikning dastlabki yillardan 2017- yil yanvar oyiga qadar davr oralig'ida korrupsiya qarshi kurashishning huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlari to'liq ishlab chiqilmaganligi sababli "maishiy korrupsiya" holatlari soni ortib ketdi.

Lekin, korrupsiya qarshi kurashish yangi davri va bu illatga qarshi olib borilgan keng miqyosli tashviqot va targ'ibotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy sohadagi "maishiy korrupsiya"ning hajmi iqtisodiy sohada faoliyat olib borayotgan yuqori mansabdar shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiya holatlarining miqdoriga nisbatan juda kichik miqdorni tashkil etmoqda.

Sodir etilayotgan aksariyat korrupsiya jinoyatlarining namoyon bo'lish belgilaridan biri ish beruvchining manfaatlari bilan mansabdar shaxs xatti-harakatlari orasidagi konfliktlar yoki

jamiyat manfaatlari bilan saylangan shaxslarning xatti-harakatlari orasidagi konfliktlarda ko'rinoqda.

Shuningdek, keng tarqalgan korruksiyaning turlaridan biri davlat boshqaruviga qarshi jinoyatlar qatoriga kiruvchi mansabdar shaxslar tomonidan sodir etiladigan firibgarlik hisoblanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, o'zining mulki hisoblanmagan resurslarni mutlaq boshqarish huquqi berilgan har qanday shaxs (hukumat vakili, deputat, suda, huquqni muxofaza qiluvchi organ xodimi, administrator, malaka attestati beruvchilar, vrach va boshqalar) tomonidan korruksiya jinoyatlari sodir etilishi mumkin.

Bunda, korruksiyani sodir etish uchun motiv bo'lib, mansab vakolatlaridan foydalangan holda qo'lga kiritiladigan renta - iqtisodiy foyda olishga bo'lgan imkoniyatning mavjudligida bo'lib, jinoyatdan qaytaruvchi stimul esa ta'sir qilish va jazo xavfining muqarrarligi hisoblanadi.

Dunyoning rivojlanishi hamda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida korruksiyaga qarshi kurashda birlashmog'imiz lozim! Korruksiya - bu har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini izdan chiqaruvchi eng xavfli jinoyatdir. Hech qaysi mamlakat, biron-bir hudud yoki jamiyat yo'qki u korruksiyaga qarshi immunitetga ega bo'lsa.

Birlashgan millatlar tashkilotida barcha davlatlar hamkorlikda, ta'lim, tibbiyot, sud-huquq, demokratiyaning rivojlanishiga korruksiyaning kirib borishiga asosiy e'tiborini qaratuvchi tadbir ishlab chiqilgan. Xalqaro tadbir o'zining e'tiborini korruksiyaning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta to'siq bo'lishga qaratadi.

Korruksiya jamiyat, davlat hokimiyati organlarining manfaatlari qarshı qaratilgan noqonuniy faoliyatning maxsus ko'rinishi ekanligini tushunish muhimdir; u mansabdar shaxs va fuqaro(mijoz)ning o'zaro kelishuvga erishib til biriktirishidir. Undan olinadigan moddiy va nomoddiy imtiyozlar noqonuniy bo'lib, ularning atrofida ahloqsiz ijtimoiy muhit yuzaga keladi. Korruksiyaning shakllari turlicha, ammo korruksiya oqibatlari har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, mamlakat aholisiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli bugungi kunda korruksiyaga qarshi kurashda jamiyatda korruksiyaga qarshi huquqiy ongri shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, ya'ni korruksiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi insonning o'zida ichki rad etishni shakllantirmoq kerak. Bugungi kunda, korruksiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks yondashuv shakllantirilmoqda. Lekin, bu yondashuvlarda korruksiyaning shakllanishini mintaqaviy hususiyatlarini inobatga olinmaganligi sababli korruksiyaning ayrim ko'rinishlari va turlari bilangina qarshi kurashish ishlari olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, korruksiyaga qarshi kurashishning samarasizligini 2 ta asosiy sabab bilan bog'lash mumkin.

Birinchidan, "Korruksiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun talablari asosida korruksiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyati Korruksiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tomonidan muvofiqlashtirilmoqda.

Lekin, Respublika idoralararo komissiyasi korruksiyaga qarshi bevosita kurash olib bormasligi va qarshi kurashuvchi organlar hamda tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan malumotlarning tahlili asosidagina amalga oshirilgan ishlar samaradorligini baholaganligi uchun hozirda korruksiyaga qarshi kurashishning yagona tizimi mavjud emas.

Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha har bir organ hamda tashkilotning o'z standarti va mexanizmi mayjud. Axborot tahliliy faoliyat asosida korrupsiyani keltirib chiqarayotgan va uning yoyilishiga sharoit yaratib berayotgan omillarni tizimli tahlil qilish orqali tezkor-qidiruv tadbirlarini kerakli ma'lumotlar majmui bilan ta'minlab berish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali chora-tadbirlaridan biri huquqni muxofaza qiluvchi va vakolatga ega organlar tomonidan o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

- 1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston 2017 yil
- 2.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi. T.: O'zbekiston. 2017
- 3.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston.2016 yil
4. Tma.uz toshkent tibbiyot akademiyasi rasmiy sayti